

## DINNING PAYDO BO‘LISH. SHARQ ALLOMALARINING DIN, TARBIYA TO‘G‘RISIDAGI QARASHLARI

*Talaba : Nortayeva M.*

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi*

*Toshkent axborot texnologiyalari unversiteti*

*Samarqand filiali*

*Ilmiy rahbar: X.U.Samatov*

*TATU Samarqand filiali*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Islom dinining dunyoga tarqalishi va ta'lim tarbiyaga o'z ta'sirini o'tkazilishi, shuningdek islom dinining muqaddas kitobi sanalmish Qur'oni Karimda Alloh tomonidan nozil qilingan ta'lim tarbiya, odob-axloq, ilm-fan to'g'risidagi oyiti kalimalarni o'rganishimiz va kelajak avlodga to'la qonli yetkazishimiz va amal qilishimiz shart va zarurdir.

**Kalit so'zlar:** Din, arab-tili, islom, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) masjid, Ka'ba, qibla, badr janggi, uhud janggi, UNESCO, fetishizm, totemizm, animizm, sehrgarlik, Qur'on, kiyik terisi, makkiy, madaniy.

Alloh taolo Qur'on tili etib tanlab olgan buyuk til. Haqiqatda u har bir musulmonning qalbiga yaqindir. Arab-tili, u haqida gapirishgandek juda murakkab til emas, balki juda boy til. Aslida esa talaba arab-tilini o'rganish moboynda duch keladigan barcha muammolar arab-tilining murakkabligida emas, balki boshqa sabablarga bog'liq. Arab-tili hozirgi kunda 6 ta jahon tilining biri hisoblanadi. UNESCO axborotiga ko'ra hozirgi kunda dunyoda 5600 dan ortiq til va shevalar mavjud. BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) kengashlarida ish yuritish uchun qo'llaniladigan yetti tilning bittasi arab-tilidir. Bu tilda BMT, Arab davlatlari legasi, Fors ko'rfazi, arab davlatlari kengashi, AOPEK tashkiloti, arab-tili akademiyasi, Islom robitasi tashkilotlari singari bir qator, xalqaro tashkilotlarida kengashlar, sessiyalar, va majlislar olib boriladi. Bu tilda jahon ma'daniyatining durdonalariga aylangan ko'plab adabiy-badiiy, falsafiy, diniy, tarixiy, siyosiy, mavzulardagi asarlar yoritilgan. Yurtimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi ko'plab vatandoshlarimiz o'zlarining ilmiy ma'rifiy asarlarini arab tilida yozishgan. Bugungi kun yosh kadrlari mazkur asarlarni o'qish, ularni ilmiy tahlil qilish hamda tarjima qilib xalqimiz e'tiboriga havola

qilaolishlari muhim masalalardandir. Bu esa, arab-tilini o'rganish va o'rgatishni taqozo qiladi. Hozirgi paytda arab davlatlari dunyoning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarida alohida mavqe egallayapti va ta'siri va nufuzi ortib boryapti. Mazkur arab davlatlari asosan Fors ko'rfazi, Hind okeani, O'rta-yer dengizi, Atlantika okeani sohillariga, Osiyo qit'asining janubi-g'arbiy, Afrika qit'asining shimoliy mintaqalarida joylashgan.

Hozirgi paytda mustaqil 22 ta arab davlatining umumiy aholisi soni 190 milliondan ortadi. Kelajakda arab davlatlari bilan iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda o'zaro hamkorlik qilish, jumladan ular bilan o'zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishni o'zimizga maqsad qilib quygan ekanmiz, arab davlatlari bilan ham turli darajalardagi munosabatlarni rivojlantirib borishimiz lozim. Arab-tilini bilish ushbu maqsadga yetishish uchun ham xizmat qiladigan muhim omildir. Arab-tili xom-som tillar oilasining somiy tillar guruhiga kiradi. Bu guruh yana ivrit (yaxudiy) oysor, amhar, va horari tillarni o'z ichiga oladi. Klassik arab-tili Qur'oni Karim tili asosida zamonaviy arab adabiy tili shakllangan. Barcha arab davlatlari rasmiy muammolarini shu tilda zamonaviy adabiy tilda olib boradi, ommaviy axborot vositalari; matbuot, radio, televideniya ham shu tilni ishlatadi. Ammo arablarning kundalik hayotlarida ishlatadigan so'zlashuv tillari arab adabiy tilidan farqlanadi. Shuningdek, turli mintaqalardagi arablarning tillari bir-biridan farq qiladi. Bu farq ayrim hududlarida shuqadar kattaki xalqning savotsiz qismi o'z davlatining rasmiy tilini bazo'r tushinishi hatto tushina olmay qolishi ham mumkin. Arab alifbosida 28 ta harf bor. Arab alifbosi bizning harflarimizdan o'ngdan chapga yozilishi va o'qilishi, bosh hamda kichik harflari yo'qligi, har bir harf alohida, so'z boshida, o'rtasi va oxirisida keladigan shakllarga ega ekanligi jihatidan farq qiladi. Arab alifbosining hammasi undosh harflar. Unli harflarni ifoda etuvchi belgilar harakatlar deyiladi.

Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. "Tarbiya" so'zi arabcha "robba" fe'lidan olingan bo'lib, o'stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma'nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar "tarbiya"ni bir necha xil ta'rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta'riflaydi: "Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir". Rog'ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta'rif qiladi: "Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning ma'nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg'unlik hamda muvozanat ila o'stirishdir". Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas'uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir.

Boshqa burchlar ba'zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya mas'uliyati bardavom bo'ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne'matiga



haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas'uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi Odob masalasini insoniyat tarixida to'laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning o'z odobi bor. Dunyodagi odobga bag'ishlangan asarlarning asosini va ko'piligini Islom halqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan gapda zarracha mubolag'a yo'q. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do'stlik, sahiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy merosmilliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chunki, "Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o'tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoiylilik manbai hisoblanadi" Har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga oid an'analari borki, ular pedagogik tafikkur taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota ona o'z farzandlarini barkamol inson bo'lishini istaydi, o'zlari eta olmagan orzuomidlariga bolalarining etishligini o'ylaydi. Bolalarning har bir yutug'idan quvonishadi, mag'lubiyatidan tashvishga tushishadi. Farzandlarini baxtli ko'rish ular uchun eng baxtiyor damlar hisoblanadi. Buning uchun ularga bor kuch-quvvatini sarflashadi. O'tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma'naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o'z qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo'lamiz.

Mana shunday mangu allomalar jumlasiga Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos qo'sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo'lmoqda. "Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko'ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi.

Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o'quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu

fasod ishlardan o'zini olib qochishga undaydi" Shu sababli ham ta'lim tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Abdulla Avloniyning "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi Islom" asari mavjud. Ushbu asar boshlang'ich maktablarning o'quvchilariga mo'ljallangan. Risolada Odam alayhissa-lomdan Muhammad alayhissalomgacha o'tgan payg'ambarlarning qissalari va zuhuri islom zikr etilgan. Islom tarixi fanida payg'ambarlar tarixi, payg'am-barimiz Muhammad alayhissalomning hayotlari va Islom dini tarixi, shuningdek, ilk xalifalik davri tarixi uch bosqichda o'rganiladi. Nasiruddin Rabg'uziyning "Qissayi Rabg'uziy", Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlari payg'ambarlar tarixiga oid bo'lsa, Alixonto'ra Sog'uniyning "Tarixi Muhammadiy"si ikkinchi va Rizoud-din ibn Faxrud-dinning "Xulafoi roshidin" asari uchinchi davrni o'z ichiga oladi.

Milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, "Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o'tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoiylik manbai hisoblanadi" Har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga oid an'analari borki, ular pedagogik tafikkur taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota ona o'z farzandlarini barkamol inson bo'lishini istaydi, o'zlari eta olmagan orzuomidlariga bolalarining etishligini o'ylaydi. Bolalarning har bir yutug'idan quvonishadi, mag'lubiyatidan tashvishga tushishadi. Farzandlarini baxtli ko'rish ular uchun eng baxtiyor damlar hisoblanadi. Buning uchun ularga bor kuch-quvvatini sarflashadi.

O'tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma'naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o'z qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo'lamiz. Mana shunday mangu allomalar jumlasiga Ahmad Yassaviy kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos qo'sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo'lmoqda. "Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko'ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari



o'quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o'zini olib qochishga undaydi" Shu sababli ham ta'lim tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Abdulla Avloniyning "Muxtasar tarixi anbiyo va tarixi Islom" asari mavjud. Ushbu asar boshlang'ich maktablarning o'quvchilariga mo'ljallangan. Risolada Odam alayhissalomdan Muhammad alayhissalomgacha o'tgan payg'ambarlarning qissalari va zuhuri islom zikr etilgan. Islom tarixi fanida payg'ambarlar tarixi, payg'am-barimiz Muhammad alayhissalomning hayotlari va Islom dini tarixi, shuningdek, ilk xalifalik davri tarixi uch bosqichda o'rganiladi. Nasiruddin Rabg'uziyning "Qissayi Rabg'uziy", Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlari payg'ambarlar tarixiga oid bo'lsa, Alixonto'ra Sog'uniyning "Tarixi Muhammadiy"si ikkinchi va Rizoud-din ibn Faxrud-dinning "Xulafoi roshidin" asari uchinchi davrni o'z ichiga oladi. Naqshbandiya xojagon tariqati negizida paydo bo'lib, Yusuf Hamadoniy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Ahmad Yassaviy qarashlarini omuxta etdi, ularga yangi ruh berib rivojlantirdi. XV—XVIII asrlarda savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanadigan shahar aholisi hamda ko'chmanchi chorvador aholi orasiga keng yoyildi. Naqshbandiya ta'limotining asosida "ko'ngil xudoda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'lsin" ("dil ba yoru, dast ba kor") shiori yotadi. Naqshbandiyada pir-u muridlik qoidalari hiyla osonlashtirilgan, sirdan turib e'tiqod qo'yish, imon mustahkamligi, Haqtaologga sidqidildan itoat etish, ixlos va ma'naviy kamolot asosiy o'rin egallaydi. Rasm-rusumlar, odatlarni ko'r-ko'rona ado etish, riyo, soxta dindorlik qoralanadi. Axloqiy poklik, qanoatli, sabrli bo'lish, ixtiyoriy faqirlik bilan Allohga intilish yuksak fazilat hisoblanadi. Naqshbandiyada odamning qadri mansabi, boyligi bilan emas, ma'naviy komilligi bilan o'lchanadi. Naqshbandiyada hunar, kasb egallab, o'z mehnati bilan halol luqma yeb yashash talab qilinadi, tilanchilik, darbadarlik bilan kun kechirish sufiy uchun isnod sanaladi. Qul, xizmatkor saqlash, o'zganing mehnatidan foydalanish ham man etiladi. Naqshbandiyaning yuqoridagi shiori tarkidunyochilikka, tekinxo'rlikka qarshi qaratilgan. Naqshbandiyada manmanlik, sufiy, shayxman deb kerilish, shovqin-suron ko'tarib zikru samo' bilan odamlar diqqatini o'ziga qaratish qoralanadi. Naqshbandiyada asosiy talab — qalbni dunyo g'uborlaridan tozalash, o'z nafsini bilan kurashib ruhda charog'onlik topish, qalbdan Alloh nomlarini naqshlab borish usullari ishlab chiqilgan. Zikri xufiya (yashirin zikr tushish) shunga xizmat qilgan. "Tashqaridan xalq bilan, ichkaridan Haq bilan bo'lish", har bir nafasni Xudo yodi bilan chiqarish, qadamni savob ishlar, ezgu amallar sari qo'yish, yurt kezib, aziz-avliyolar qabrini ziyorat qilish,

g'ofillarni hushyor etish, har qanday holatda qalb ogoxligiga erishish — Naqshbandiyaning asosiy ma'naviy tarbiya usuli hisoblangan.

Naqshbandiyada pir va murid orasidagi ma'naviy orifona suhbatga katta e'tibor qilingan. Naqshbandiyaga ko'ra, suhbat — anjuman ichra bo'lish, bilmaganni bilib olish, yuksalish, karomatlar sir-u asrori, ilohiyot olami nurlaridan baxramandlik bo'lsa, buning aksi — xilvat esa kishini bilimdan, ma'rifatdan mahrum qiladi. Naqshbandiyada o'zini o'zi nazorat qilib borish, olgan bilimlarini dilda mustahkamlash, umrning har bir damini savob ishga, har bir nafsni ma'naviy kamolot uchun sarflash lozim deyiladi. "Vuqifi zamoniyy" (muayyan vaqtda to'xtab o'zini tekshirish), "vuqifi adadiyy" (ishlarini sarhisob qilib tekshirish), "vuqifi qalbiyy" (qalb amallari qanday bo'layotganligini to'xtab, tekshirib borish) kabi shiorlar ("qudsiy so'zlar") ham ana shu nazorat usuliga kiradi. Naqshbandiya, shu tariqa, tasavvufni islom shariati va payg'ambar sunnati bilan yanada mustahkamroq bog'ladi. "Urvatul vusqo", ya'ni barcha ishda payg'ambar so'zlari va ishlariga suyanish Naqshbandiya shiorlaridan biriga aylandi. Naqshbandiyada sufiylik iste'dodiga ham e'tibor berilgan, ya'ni ba'zi kishilarning men falon silsiladanman, naslnasabim falon-falonchilarga borib taqaladi, degan gaplariga qarshi Bahouddin Naqshband "ran silsilada emas", ran Allohning jazbasida" deb aytadi. Jazba bo'lmasa, sufiylikda maqomatlarga ko'tarilish qiyin.

Naqshbandiya Bahouddin Naqshband hayotligidayoq keng shuhrat qozondi. Naqshbandiyani nazariy jihatdan ishlab chiqishda Muhammad Porso, Alouddin Attor xizmatlari katta bo'ldi. Bu tariqatga faqatgina oddiy xalq emas, balki Buxoro va Samarqand ulamolari, Amir Temur avlodidan bo'lgan shoh va shahzodalar kira boshladilar.

XV asrdayoq Naqshbandiya Eron, Afg'oniston, Misr, Hijoz, Shimoliy Kavkaz, Turkiyaga tarqala boshladi. Ayniqsa, "hazrati Eshon" unvoniga musharraf bo'lgan Xoja Axror valiy — Nosiriddin Ubaydulloh faoliyati tufayli Naqshbandiyaning obro'-e'tibori yana ham oshdi. Bahouddin Naqshband zamonida mansabdor shaxslar, shox-u amirlardan uzoq turish lozim deyilgan bo'lsa, Xoja Ahror valiy davrida Naqshbandiya siyosiy doiralarga kirib bordi. Naqshbandiya XVI asrda Hindistonga tarqaldi. Bunda Bobo valiy, Xoja Boqibilloh (1563—1603), Axmad Sirhindiy (1564—1624) faoliyati yaxshi samara bergan. Ayniqsa, Ahmad Sirhindiy u yerda sunniylik yo'nalishini mustahkamlash uchun Naqshbandiyadan unumli foydalangan. Naqshbandiyani Turkiyada yoyilishida Mulla Abdulloh Simaviy (1490-yilda vafot etgan), Ahmad Buxoriy va boshqa shaxslarning

xizmati bor. Naqshbandiya XVI—XVII asrlarda Misr va Hijozga (Arabistonga) kirib boradi. Eronning Nishopur, Isfahon, Yazd shaharlariga tarqalib, shular orqali Falastin, Iroq, Iordaniyada ko‘plab tarafdorlarga ega bo‘lgan. Hindiston orqali u Indoneziya, Malayziya, Seylonga tarqaldi. Keyingi asrlarda Rossiya, Bosniya va boshqa Yevropa mamlakatlariga yoyilgan. Hozirda AQSH, Kanada, Avstriyada Naqshbandiya markazlari, xonaqolari, jamg‘armalari bor.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Milliy Insiklopediyasi ( 2000 - 2005).
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.: “Hilol-nashr”. 2013 y
3. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma’naviy qadriyatlar.T.: Muharrir, 2008 y.
4. M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma’naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.
5. Idris shoh, Naqshbandiy tariqati, T., 1993;
6. Abul Muqsin Muhammad Boqir ibn Muhammal Ali, Bahouddin Balogardon, T., 1993;